



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI
BOSHQARISH AGENTLIGINING
YAGONA AKSIYADOR (ISHTIROKCHI) Q A R O R I**

20 24 yil “20” mart

58/09-3-qr - sonli

Toshkent sh.

**“O‘zdonmahsulot” aksiyadorlik jamiyati
boshqaruv raisi o‘rinbosarining vakolatini tugatish to‘g‘risida**

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 58 - moddasiga asosan Davlat aktivlarini boshqarish agentligi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

a) “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 58-moddasida barcha oddiy aksiyalar bitta aksiyadorga tegishli bo‘lgan jamiyatda aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo‘yicha qarorlar yagona aksiyador qarori qabul qilinishi;

b) “O‘zdonmahsulot” AJ (keyingi o‘rinlarda - jamiyat) tomonidan jamiyat boshqaruv raisining Moliya, marketing va investitsiya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Iskandarov Rustam Sadullayevichning 2023-2024-yillarda ishlagan davri uchun 2024-yil 25-martdan mehnat ta‘tiliga chiqish va ta‘til tugaganidan so‘ng nafaqaga chiqishi munosabati bilan o‘z xohishiga ko‘ra mehnat shartnomasini bekor qilish yuzasidan arizasi taqdim etilganligi;

d) Jamiyat Ustavining 10.2.-bandiga asosan boshqaruv raisi va **boshqaruv a‘zolarini** saylash (tayinlash), ularning vakolatlarini **muddatidan ilgari tugatish** aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi vakolatiga kiritilganligi **ma‘lumot uchun qabul qilinsin.**

2. “O‘zdonmahsulot” AJ Boshqaruv raisining Moliya, marketing va investitsiya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Iskandarov Rustam Sadullayevich 2023-2024-yillarda ishlagan davri uchun mehnat ta‘tili yakunlangandan so‘ng O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga asosan **2024-yil 24-apreldan** o‘z xohishiga ko‘ra egallab turgan lavozimidan ozod etilsin va u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinsin.

3. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Davaktiv agentligi direktorining birinchi o‘rinbosari N.Xusanov zimmasiga yuklansin.

Direktor

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT
AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGI

ASLIGA TO‘G‘RI

20 mart 2024 y.

A. Ortikov